

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ABDUVALIYEV ASROR ABDUSOLIYEVICH

**TURIZM SOHASIDA GEOAXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economics Sciences**

Abduvaliyev Asror Abdusoliyevich

Turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini
takomillashtirish 5

Абдувалиев Асрор Абдусолиевич

Совершенствование механизма использования геоинформационной системы
в сфере туризма 27

Abduvaliev Asror Abdusolievich

Improvement of the mechanism of using geoinformation system in the sphere of
tourism..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

ABDUVALIYEV ASROR ABDUSOLIYEVICH

**TURIZM SOHASIDA GEOAXBOROT TIZIMIDAN FOYDALANISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Iqt902 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasi (www.siyes.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxliyev Iskandar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Doschanov Tangirbergen
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.22.2022.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: siyes_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: siyes_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____kuni tarqatildi
(2025-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muhammedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ustuvor darajada raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslanib borishiga ko'ra turizm sohasini barqaror va samarali rivojlantirishda geoaxborot tizimidan foydalanishga alohida segment sifatida e'tibor qaratilmoqda. "Bugun dunyo bo'yicha yetakchi turoperatorlarning 56% ijtimoiy tarmoqlar orqali shartnomalar imzolagan holda,¹ turistlarning 44% mehmonxonalarni band qilishni ijtimoiy tarmoqlargi ma'lumotlarga va bildirilgan fikrlarga tayanadi"². Bugungi kunda turizm sohasini samarali rivojlantirishda istiqbol maqsadlariga muvofiq bo'lgan takomillashtirilgan geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini, jumladan turizm industriyasini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar tarkibida raqamli texnologiyalarga asoslanagan ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada turizm sohasida GATning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, turizm industriyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining geoaxborot tizimlariga asoslanish darajasini oshirish, sohani axborotlashtirishga ko'ra marketing va boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirish kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida turizm industriyasini sifat jihatdan rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini tubdan oshirish, turizm infratuzilmasini zamonaviy talablarga ko'ra rivojlantirish, sohaning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini drayver soha darajasiga ko'tarish kabilar yuzasidan keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "... Xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish" vazifalari belgilangan. Bu borada turizm sohasining moddiy-texnik va infratuzilmaviy zamonaviy bazasini jadal rivojlantirish, YAIMdagi ulushini oshirish, raqamli transformatsiyalashda geoaxborot tizimidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son "Koronavirus pandemiyasining

¹ Khan Mahmood, A., Social Media Influences on Hospitality & Tourism Management, Department of Hospitality and Tourism, Pamplin College of Business, Virginia Tech University, www.scitechnol.com

² Statista (2015) How Important Do You Think Social Media Will Be In 5 Years? Time? www.statista.com

salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasini rivojlantirish hamda turizm sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishning nazariy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar³: A.Y.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, Y.A.Barzikin, N.I.Kabushkin, R.V.Kolotova, A.S.Samardak, V.A.Kvartalnov, T.A.Sipileva, A.D.Chudnovskiy, F.SHerer, A.B.Kosolapov, I.Y.Barliani va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan⁴ K.X.Abduraxmonov,

³Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебник. Издательство · Кнорус, 2016 г– 460 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. -М.: Финансы и статистика, 2013. –176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное. – СПб.: “Издательский дом Герда”, 2007. – 576 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. -409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избр. произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2012. – 499 с.; Чудновский А.Д., Жукова М.А. Менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве. - М.: КНОРУС, 2005.– 320 с.; 698 с.; А.Б.Косолапов Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. - 2-е изд., стер– М.2006-400с.; Самардак А.С. Геоинформационные системы: Учебное пособие. - Владивосток: ТИДОТ ДВГУ, 2005. - 123 с.; Ципилева Т.А. Геоинформационные системы: Учебное пособие. – Томск, 2014 г. 163 с.; Барлиани И.Я. Использование геоинформационных систем в туристическом бизнесе. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-geoinformatsionnyh-sistem-v-turisticheskom-biznese/viewer>.

⁴ Абдурахмонов К. Туристическая индустрия в условиях пандемии. Туризмда инновацион-инвестиция жараёнларини ривожлантириш истикболлари. / 2020 йил 3 июн. Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2020.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”,2006.-424 с.; И.С.Тухлиев., С.А.Абдухамидов. Туризм: назария ва амалиёт. Дарслик (Учинчи нашр) –Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 424 бет.; Пардаев М., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни тахлил қилиш ва баҳолаш. - Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Мухаммедов М. ва б. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. С.: 2007. – 299 б.; Навруз-зода Б. ва б. Туристтик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Б.: 2017. – 156 б.; Досчанов Т., Рўзметов Б. Туризмни ривожлантиришда музейлар фаолиятига рақамли технологияларни қўллаш масалалари. – Самарқанд, СамИСИ, 2021 й. 103-107 б. Асланова Д. Модели формирования туристского кластера за рубежом. “Сервис” илмий оммабоп журнали, 2013. №1; Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш Докторлик диссертацияси. -С.: СамИСИ, 2017.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). Докторлик диссертацияси.-С.: СамИСИ, 2019; Алиева М.Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация. –С.: 2020. -275 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография.-Т.: 2016.-184 б.; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. Т.:

M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.To‘xliyev, M.M.Muxammedov, B.N.Navro‘z-zoda, T.Doschanov, D.X.Aslanova, O.H.Hamidov, A.A.Eshtayev, B.SH.Safarov, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Yuqorida ta’kidlangan xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda, bevosita turizm sohasida geoaxborot tizimlarini qo‘llash xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlaydigan geoaxborot tizimini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №OT-F1-61 “O‘zbekistonning turistik-rekreatsioon salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborot tizimini shakllantirish” mavzusidagi fundamental va №PZ-20170929632 “Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish” mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohasida geoaxborot tizimi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini asoslash;

raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi geoaxborot modelining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash;

turizm sohasini raqamlashtirishda geoportal va platformalardan foydalanishning iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Qashqadaryo viloyati turistik-rekreatsioon obektlarining elektron xaritasini ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyatida tarixiy-madaniy obektlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish va raqamlashtirish omillarini baholash;

pandemiyadan keyingi davrda Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirishning strategik rejasini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash;

O‘zbekiston turistik geoportali tizimining tashkiliy mexanizmini ishlab chiqish;

geoaxborot tizimini qo‘llash orqali Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbolini prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati turizm xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan turizm subektlarining iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sohada geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.

2015. -3006. Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари. DSc. диссертация автореферати– Тошкент, 2021..

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik, ilmiy ekspeditsiya, ekspert baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm obyektlari va resurslarining majburiy reyestrini yuritish, turizmning mintaqaviy GATni ishlab chiqish va unga ko‘ra mintaqaviy turmahsulotni xorijiy turizm bozorlariga kiritish kabilarning maqsadga muvofiqligi asoslangan holda “Raqamli turizm” geoaxborot modelining takomillashgan tarkibiy tuzilishi taklif qilingan va raqamli turistik mashrutlar xizmatlaridan foydalanishga ko‘ra “Tourism in Uzbekistan” geoportalining tashkiliy mexanizmi takomillashtirilgan;

mintaqada turizm xizmatlarini pandemiyadan keyingi davrda rivojlantirish strategik rejasini shakllantirish mexanizmi GATga hamda sohani qo‘llab-quvvatlash, paketlarni dasturlashga ko‘ra yo‘ldosh sohalararo chora-tadbirlarni ishlab chiqish, turistik zona va klasterlarni tashkil etish hamda istiqbol maqsad natijalari (jarayoni)ni GAT asosida baholash, qayta aloqa va nazorat tizimlarini tashkil qilish ustuvorligida takomillashtirilgan;

viloyatga kiruvchi turistlarning geoaxborot tizimini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan AKT, uzatish tarmog‘iga ulanish, maxsus turistik dasturiy vositalar va provayderlar tarmog‘ida joylashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2027-yilga bo‘lgan davrga mo‘ljallangan prognozi asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlanishining bir kunlik tashrif buyuruvchilar, tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar va sotilgan sayyohlik yo‘llanmalarga ko‘ra 2024-2027-yillarga bo‘lgan davrga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish jarayonida geoaxborot tizimi faoliyatini ta‘minlovchi axborot, dasturiy ta‘minot, texnik qo‘llab-quvvatlash va huquqiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan tashkil topgan turizm sohasi uchun geoaxborot modelining tarkibiy tuzilishi ishlab chiqilgan;

viloyatning turistik jozibadorligini targ‘ib qilish, turistlarning buyurtmali turlarning ishlab chiqilishiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda o‘rta, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida turizm fanlarini o‘qitishda mukammal ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan interaktiv elektron xarita taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tgani, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asoslangan xulosa va tavsiyalar turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga va turizm sohasini yanada rivojlantirishda amalga oshiradigan ilmiy loyihalarning nazariy bazasini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish orqali turistik xizmatlarning yalpi

hududiy mahsulotdagi ulushini oshirish, turistik oqimning barqaror o'sishiga erishish, boy turistik salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

turizm obyekti va resurslarining majburiy reyestrini yuritish, turizm mintaqaviy GATni ishlab chiqish va unga ko'ra mintaqaviy turmahsulotni xorijiy turizm bozorlariga kiritish kabilarning maqsadga muvofiqligi asoslangan holda "Raqamli turizm" geoaxborot modelining takomillashgan tarkibiy tuzilishi va raqamli turistik mashrutlar xizmatlaridan foydalanish darajasi bo'yicha "Tourism in Uzbekistan" geoportalining tashkiliy mexanizmi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning "2020-2022-yillar Qashqadaryo viloyatini raqamli transformasiya qilish dasturi"ga kiritilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2022-yil 29-martdagi 06/945-sonli, Turizm va madaniy me'ros vazirligining 2022-yil 4-avgust 04-18/3941-sonli ma'lumotnomalari). Taklif hududda turistik salohiyatdan samarali foydalanish va turizm sohasini raqamlashtirilish darajasini oshirishga hamda turistik salohiyati madaniy meros resurslari va turistik faoliyat subektlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini kengaytirishga, hududda turistlar oqimi va buyurtmali turlarga bo'lgan talabni qondirish imkoniyatini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

mintaqada turizm xizmatlarini pandemiyadan keyingi davrda rivojlantirish strategik rejasini shakllantirish mexanizmi GATga hamda sohani qo'llab-quvvatlash, paketlarni dasturlashga ko'ra yo'ldosh sohalararo chora-tadbirlarni ishlab chiqish, turistik zona va klasterlarni tashkil etish hamda istiqbol maqsad natijalari (jarayoni)ni GAT asosida baholash, qayta aloqa va nazorat tizimlarini tashkil qilish ustuvorligida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonning "2020-2022-yillar Qashqadaryo viloyatini raqamli transformatsiya qilish dasturi"ga kiritilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2022-yil 29-martdagi 06/945-sonli, Turizm va madaniy me'ros vazirligining 2022-yil 4-avgust 04-18/3941-sonli ma'lumotnomalari). Taklif ma'lumotlar sifatini, investorlarni jalb qilish jozibadorligini va istiqbol maqsadlarni amalga oshirish tadbirlari samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

viloyatga kiruvchi turistlarning geoaxborot tizimini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan AKT, uzatish tarmog'iga ulanish, maxsus turistik dasturiy vositalar va provayderlar tarmog'ida joylashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha 2024-2027-yillarga bo'lgan davrga mo'ljallangan prognozi bo'yicha takliflar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2024-2026-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm va madaniy me'ros vazirligining 2022-yil 4-avgustdagi 04-18/3941-sonli, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2022-yil 29-

martdagi 06/945-sonli ma'lumotnomalari). Taklif sohaga IT texnologiyalarining ustuvor rivojlantirishga ko'ra turistik xizmatlarning raqamlashtirish darajasining ortishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlanishining bir kunlik tashrif buyuruvchilar, tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar va sotilgan sayyohlik yo'llanmalarga ko'ra 2027-yilgacha bo'lgan davrga prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha takliflar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2024-2026-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm va madaniy me'ros vazirligining 2022-yil 4-avgustdagi 04-18/3941-sonli, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2022-yil 29-martdagi 06/945-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklif ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga viloyatga 2024-2027-yillar davrida kiruvchi turistlar soni hamda provayderlar tarmog'ida joylashgan turizm faoliyati subektlarining veb-saytlar sonini va IT texnologiyalariga ko'ra yaratilgan turistik xizmatlar hajmining oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 19 ta, jumladan 2 ta respublika va 8 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferenyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlarda 5 ta va xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 153 betni tashkil etgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm iqtisodiyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari, turizm sohasida geoaxborot tizimi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi geoaxborot modelini shakllantirish xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Raqamlashtirish bir necha yillardan beri iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar o‘shining asosiy tendensiyasi va omili bo‘lib kelmoqda. Raqamlashtirish texnologiyalari biznesni ham, mijozlarga munosabatini ham o‘zgartirdi. Shu tufayli, raqamlashtirish inqilobi turizm biznesini ham chetlab o‘tmadi.

Raqamlashtirish iqtisodiyoti sharoitida geoaxborot tizimining milliy iqtisodiyotda foydalanish ko‘lami kengayib bormoqda. GAT inson faoliyatining turli sohalarida ishlatiladigan integratsiyalashgan axborot tizimining zamonaviy turi bo‘lib, geoaxborot tizimining milliy iqtisodiyotda foydalanish yo‘nalishlari 1-rasmda ifodalangan.



1-rasm. Geoaxborot tizimining milliy iqtisodiyotdagi foydalanish yo‘nalishlari⁵


Tadqiqot davomida turizm sohasida foydalanadigan axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimlarini tashkil qiluvchi omillarining tasnifi amalga oshirildi. Tasniflash ma’lumotlaridan geoaxborot tizimini tashkil qiluvchi omillari boshqa axborot kommunikatsiya tizimlariga nisbatan qator afzalliklari aniqlandi. Ushbu afzalliklari turizm sohasida axborotlarni qulay shaklda chiqarish, hisob-kitob ishlarini bajarish, ma’lumotlarni har xil formatlarda saqlash va ularni import-eksport qila olish imkoniyatini yaratadi.

Shu tufayli biz tomonimizdan iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida turizm bozorining barcha tuzilmalari-turoperatorlar, turagentlar,

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yirik tarmoqli mehmonxona majmualari hamda xususiy otellar, mehmon uylar, sanatoriylar, avtotransport kompaniyalari, aviatashuvchilar, global buyurtma tizimlari, turbiznes va boshqa turistik xizmatlarining dasturiy ta'minotchilari, muzeylar hamda madaniy hordiq chiqarish va dam olish korxonalarining xizmatlarini yagona geoaxborot tizimiga (GAT) integratsiya qilishni taklif qilamiz.

Mamlakatimiz va xorijiy olimlar tadqiqotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda, turizmga geoaxborot tizimining iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanish tartibi mazmuni va mohiyatini aniqlash borasida to'rt xil yondashuvni alohida ajratib ko'rsatishni lozim topdik: iqtisodiy-ijtimoiy; marketing va boshqaruvga yo'naltirilganlik; axborotlashtirish darajasini rivojlantirish yo'nalishi, ma'lumotlar bazasini shakllantirish yo'nalishi bo'yicha yondashuvlardan iborat (2-rasm).




2-rasm. Turizmga geoaxborot tizimining iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanish tartibi⁶

Geoaxborot tizimlar hududiy ravishda tarqalgan axborot ishlatishda, hududiy baholashga ehtiyoj mavjud bo'lgan har bir joyda ilmiy va amaliy faoliyatlarda joy topadi. Bugungi kunda GAT texnologiyalari turizm va turistik resurslardan foydalanish jarayonida va turizm industriyasi obektlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Biroq bugungi kunda O'zbekiston turizm yo'nalishida bu boradagi ulkan yutuqlarga ega emas.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday turistik firmaning muvaffaqiyati mijozlarga ko'rsatilgan va ko'rsatiladigan xizmatlarga sarflangan vaqtga bog'liq. Bunday sharoitda barcha xizmatlarni on-line tartibida faoliyat ko'rsatgan firmalargina yutuqqa erishadi. Mazkur xolatdagi ish yuritish mijozlar uchun

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

shunday tashkil qilinganki, turagent va turoperator o'rtasidagi ma'lumot almashinish to'g'ridan to'g'ri yuz beradi, tan olish kerak amalda on-line tartibida ishlash O'zbekistonda yetarli darajada tashkil etilmagan.



3-rasm. "Raqqamli turizm" geoaxborot modelining takomillashgan tarkibiy tuzilishi⁷

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, turizm sohasida geoaxborot tizimi tushunchasini ta'riflashdagi yondashuvlar turlicha bo'lib, o'z navbatida mazkur iqtisodiy kategoriyaning serqirra ekanligidan dalolat beradi. Maxsus ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, bizning fikrimizcha **turizm sohasining barcha ma'lumotlarini o'zida birlashtiruvchi, keng formatga ega, voqea – hodisalarni tahlil jarayonida to'liq yoritib bera olish xususiyatiga ega bo'lgan hamda axborot texnologiyalardan mezo va makrodarajada keng foydalaniladigan jarayon turizmga geoaxborot tizimi** hisoblanadi.

Turizm sohasi bugungi raqamlashtirish jarayonida geoaxborot tizimi faoliyatidan tobora ko'proq foydalaniladigan tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Shuni hisobga olib, ishda "Raqamli turizm" geoaxborot modelining takomillashgan tarkibiy tuzilishi ishlab chiqilgan hamda mazkur modelning operatsiyalarini bajarish imkoniyatini beruvchi mexanizmlari ham taklif qilingan (3-rasm). Turizm sohasi geoaxborot modelining tarkibiy tuzilishi va mexanizmlari rasmda ko'rsatilganidek qator operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **"Turizm sohasini raqamlashtirishda geoaxborot tizimidan foydalanish omillarining tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida turizm sohasini raqamlashtirishda platformalardan foydalanish omilining tahlili, Qashqadaryo viloyatining interaktiv xaritasini shakllantirish orqali turistik-rekreatsion obektlarning tahlili va Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va raqamlashtirish omillarini baholash kabi masalalar tadqiq qilingan.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida geoaxborot tizimidan foydalanish O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki uning hududiy, tabiiy resurslari va madaniy salohiyati milliy boylikning asosini tashkil etadi. Shuning uchun maqsadga yo'naltirilgan va ushbu tizim bilan iqtisodiy samaradorlik talablarini hisobga olgan holda amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda, chunki O'zbekiston hududlaridagi aholining bandligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun raqamlashtirish iqtisodiyotining talablariga muvofiq geoaxborot tizimidan foydalanish hudud va resurslarni rivojlantirishning yuqori samaradorligini oshirish manbasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish, tarixiy-arxeologik bog'lar barpo etish, qishloq joylarda turizm va turistik xizmatlarni rivojlantirish, avtomagistral yo'llar, servis xizmati ko'rsatish majmualarini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar yurtdoshlarimizning mamlakatimiz bo'ylab sayohat qilishi uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradigan raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qilmoqda.

Ilmiy manbalarni o'rganish asosida ananaviy va turizmni raqamlashtirish oid jarayonlarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi, ananaviy va raqamli turizmga oid jarayonlar orasida katta farq mavjud bo'lib, jamiyat va turizm sohasi faoliyatida jarayonlar masshtabi va rolining o'zgarib borishi hamda keskin farqlarning mavjudligi, raqamlashtirishni tashkil etish va boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati borligi aniqlandi (1-jadval).

Ananaviy va turizmni raqamlashtirish jarayonlarning qiyosiy tahlili⁸

Jarayon tavsifi	Ananaviy jarayonlar bo'yicha	Raqamli jarayonlar bo'yicha
Turizmda rejalashtirish imkoniyatlari va samarali boshqaruv	Turizmni rivolantirish bo'yicha rejalashtirish imkoniyatlari turfirma va boshqaruv tashkilotlari tomonidan past darajada. Turistlar turfirmaning turpaketi bilan chegaralangan.	Turizmni uzoq muddatli rejalashtirish va prognoz qilishda, pandemiyadan so'ng turizmni tiklash bo'yicha strategik rejani tayyorlash imkoniyati. Turistlar Internet orqali o'z sayohatini o'zlari rejalashtirish, narxlarni va mehmonxonalarni tanlashda hamda turpaket va ekskursiyalarni yaratishda tegishli qaror qabul qilish imkoniyati mavjud.
Turizm, mehmonxona va boshqa turdagi joylashtirish vositalarida AKTlardan foydalanish	Ofisga yo'naltirilgan turistik firmalarimiz kompyuterlarida asosan "Windows 10" operaon tizimdan, mehmonxona xo'jaligida asosan Booking.com, Uzbekistan pass saytlaridan foydalanishadi.	Turizm faoliyatini amalga oshirish bilan bog'lik barcha davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish va global bronlashtirish tizimi orqali mehmonxona tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va saytlarni nazorat qilish, jumladan portallarning turistik saytlarini yaratish imkoniyati
Turizmda geoaxborot tizimi faoliyatini qo'llash	Mamlakatimizda bevosita geoaxborot texnologiyalarni qo'llash faqat turistik kartalar, bukletlar va tarkibiga karta hamda sxemalar kiradigan boshqa elektron, nashrli mahsulotlarni tayyorlash uchun foydalanilmoqda.	Xududning turizmga ixtisoslashuvini aniqlash tizimini, turistik obektlarning interaktiv elektron xaritasini ishlab chiqish, turistlar uchun interfaol mobil ilovalar va turistik marshrutlar tayyorlash mumkin.
Turizmni yangi zamonaviy turlarini ishlab chiqish va yangi yo'nalishlarini yaratishga kirishish	Yangi turistik mahsulotlarni shakllantirish va yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ishlab chiqishga qaratilgan uslubiy-axborot ishlarning yetarli emasligi.	Turistik mintaqalarning ma'lum bir turizm turlariga ixtisoslashuvini aniqlash va shu asosida jozibador hamda turistlar ehtiyojini maksimal qondiradigan turistik mahsulotlarni shakllantirish imkoniyati, zamonaviy turlar bo'yicha elektron sayohatlar (ye-sayohat) bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga uslubiy-axborot xizmatlarini ko'rsatish mumkin.
Turizm resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish	Xududlardagi turizm resurslarning tavsifi, reyestri va mintaqalarning turizmga ixtisoslashuvi aniqlanmaganligi, samaradorlikni oshirishga to'sqinlik qiladi.	Xududlarning tabiiy va tarixiy-madaniy yodgorliklarini, turizmga xizmat ko'rsatuvchi yondosh soha korxonalarini va turizm yo'nalishlarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish va turistik obeklar kadastlarini ishlab chiqish imkoniyati.
Turistik mahsulotni realizaya qilish	Turoperatorlar tomonidan yillar davomida bir hil turpaketlarni taklif qilish, uni realizaya qilishda qator muammolarni chiqaradi	Ijtimoiy tarmoqlar orqali talabni urganish va turistik shartnomalar imzolash, turistik paketlarni onlayn xarid qilish. GAT orqali bozorlarga turistik mahsulotni siljitish.
Eng talabchan turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish	Xozirgi turoperatorlar tayyorlagan mahsulot talabchan turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi.	Turist sayohat yo'nalishini tanlash va ma'lum bir hududga tashrif buyurish bo'yicha o'zi qaror qabul qilishi. O'z sayohatini mustaqil ravishda ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllantirish imkoniyati.
Turizmga innovayalarni joriy etish	Turizm va mehmonxona xo'jaligida yangi innovaon g'oya va ishlanmalarni joriy qilish, mavjud tizimda iloji yo'q.	Turizmni raqamlashtirish innovaon texnologiyalarni joriy etishda xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirishga yordam beradi.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli platforma turlarining o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslash natijasida O'zbekistonning milliy turistik mahsulotlarini shakllantirish tizimini rivojlantirishga qaratilgan funksiyalarni amalga oshiradigan turli bloklar, xizmatlar va mobil ilovalar ham ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish geoaxborot tizimi bilan bog'lashning yangi yondashuvini amalga oshirish qator strategik maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Jumladan birinchi strategik maqsad sifatida, geoaxborot raqamli platformani yaratishni belgilash kerak, bu fazoviy muammolarning barcha spektrini iqtisodiyot, hukumat, jamiyat va alohida fuqarolar manfaatlarida hal qilishni ta'minlaydi; ikkinchi strategik maqsad-geoaxborot resurslarni o'z ichiga oladigan iqtisodiy-haqiqiy va virtual fazoviy ob'ektlarni kompyuter haritalari tizimi sifatida yagona geoaxborot makonni shakllantirish va foydalanish uchun yaratilgan geokognitiv texnologiyalar platformasi asosida axborot-kommunikatsiya vositalari va geoaxborot infratuzilmasini ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi; uchinchi strategik maqsad - bu yaratilgan raqamli platformaga asoslanib, keng doiradagi xizmatlarning geofazoviy funksiyalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi geoaxborot texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston turistik geoportalni yaratish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularni bosqichma-bosqich internet tizimiga joylashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy me'ros vazirligi ham turizmni rivojlantirish va ichki va xalqaro turistlarga qulaylik yaratish maqsadida GAT texnologiyalariga asoslangan interaktiv haritani ishlab chiqishgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, geoportallarga joylashtirilgan ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanishi va to'ldirib borilishi talab qilinadi.

Shu tufayli bugungi kundagi mamlakatimizda GAT tarmoqlari to'laqonli yaratilgan, deb ayta olmaymiz, chunki turizm sohasida mavjud elektron resurslarning tahlili quydagi natijalarni ko'rsatdi, yellowpages.uz saytiga joylashtirilgan 408 ta turagentlik firmalari ma'lumotlari tahlil qilinganda 282 tasining veb-saytlari mavjudligi, 126 tasida esa yo'qligi aniqlandi. goldenpages.uz saytiga joylashtirilgan 938 turagentlik firmalari ma'lumotlari tahlil qilinganda 542 tasining veb saytlari mavjudligi va 396 tasida yo'qligi aniqlandi.

Internetda yoki oflaynda potensial haridorlarning xatti -harakatlarini tahlil qilish turistik kompaniyalarining kelajakda muntazam foydalanishning eng samarali usullari va kanallarini tanlashiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa turizm biznesiga haridorlarning xohish-istaklari asosida tayyorlangan maxsus takliflar orqali haridorlarga qo'shimcha ijobiy ta'surotlar yaratish imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatidagi turistik-rekreatsion resurslar interaktiv elektron xaritasini shakllantirish jarayonida quyidagi ma'lumotlar bazasini amalga oshirdik. Ayni paytda viloyat hududida jami 1321 ta moddiy madaniy meros obektlari mavjud bo'lib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek, hududda 4 ta muzey, 4 ta sanatoriya, 54 ta joylashtirish vositalari, 1 ta hostel (2646 o'rin), 100 tadan ortiq milliy va yevropa taomlari tayyorlaydigan restoran hamda milliy uslubdagi choyxonalar, 18 ta turoperatorlik subektlari, 26 ta axborot markazlari, 1 ta geoturizm obekti, 8 ta o'rmon xo'jaligi, 2 ta qo'riqxonalar hamda 1 ta agroturizm obekti mavjud. Yaratilgan

xarita o'zida mazkur salohiyatni aks ettiradi hamda unda Qashqadaryo viloyati kesimida turistik-rekreasion resurslarning rivojlanish xususiyatlarini va tendensiyalarini ko'rish imkoniyati yaratildi. Turoperatorlik va turagentliklari faoliyatida taklif etilayotgan xaritadan foydalanish turistlar sonini sezilarli darajada oshiradi, ularni nafaqat har bir ob'yektning batafsil tavsifi, balki rang-barang fotosuratlari bilan ham o'ziga jalb etadi, turistik salohiyatning jozibadorlik darajasini targ'ib qilishga imkon beradi. Boy tematik tarkibga, qulay interfeysga ega bo'lgan interaktiv xaritada taqdim etilgan ma'lumotlar bilan tanishgan ko'plab potensial turistlar mintaqamiz go'zalligini o'z ko'zlari bilan ko'rishni xohlashadi, ya'ni ularning Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurish ishtiyoqini yanada oshiradi. Bundan tashqari, shaharga kelgan har bir turist turmahsulotimizni elektron shaklda xarid qilib, telefon yoki kompyuterga yuklab olishi mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Farmoniga asosan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida 2020-2022-yillarda "Raqamli Qashqadaryo" geografik axborot-tahliliy geoportalini yaratish tarkibida innovaon texnologiyalarni qo'llash orqali madaniy yodgorliklarni asrash va turizmni rivojlantirish uchun axborot tizimi ishlab chiqish vazifasini bajarish maqsadida dissertatsiya ishida Qashqadaryo viloyati misolida mintaqaviy geoaxborot portali ishlab chiqildi.

Tavsiya qilingan mintaqaviy geoaxborot portalining raqamlashtirish ma'lumotlaridan foydalanish tuzilmasida turistik obektlar, xizmat ko'rsatish obektlari va ularning topografik ma'lumotlari ifodalangan. Portal orqali turizm sohasida mintaqaviy hududida joylashgan turistik resurslar kadastiri, xizmat ko'rsatish xizmatlari, geoma'lumotlar olish, raqamli turistik mashrutlar, iqlim o'zgarishlari, ekskuryalar, gidlardan foydanish, turistik resurslarni baholash, prognozlash, modellashtirish, statistika qilish va bron qilish to'g'risida batafsil ma'lumotlarni olish mumkin.


Mintaqaviy geoaxborot portali hududlardagi turistik obektlari qaysi hududda joylashgani va ularning tarixi geografik tuzilishi geolokatsiyalari haqida ma'lumotlarni olish hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Mintaqaviy yagona geoaxborot portali orqali turistlar hududlardagi ob-havo ma'lumotlarini olish bilan turistik mashrutlarini rejalashtirish imkonini beradi. Ushbu mintaqada to'plangan ma'lumotlar bazasi va portalning raqamlashtirish ma'lumotlaridan foydalanish tuzilmasi O'zbekistonda bo'lajak portal va platformalarni shakllantirishda alohida o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning **"Turizm sohasida geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida, turizmni rivojlantirish strategik rejasini shakllantirishda geoaxborot tizimidan foydalanish mexanizmini takomillashtirish, raqamli turizm bozorida geoportal tizimini shakllantirish mexanizmi va Qashqadaryo viloyatining 2024-2027-yillar davrida turizm salohiyatini rivojlantirishning prognoz parametrlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Turizmni rivojlantirishni strategik rejalashtirish turizmni rivojlantirish muammolarini hal qilishda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga, shuningdek, mintaqqa, shahar, turistik obyektning raqobatdosh afzalliklari, turizm salohiyatini

oshirish va rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlar majmuasini tayyorlash, ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish tizimi sifatida qaraladi.


Turizmni rejalashtirish juda ko'p vaqt talab qiluvchi va murakkab masala bo'lganligi tufayli, turizmdagi har qanday faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishda turizm faoliyatining yo'nalishlari va natijalariga real ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar va tashkilotlar ishtirok etadilar. GAT orqali turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda strategik yondashuvning quyidagi tarkibiy qismlari va afzalliklari taklif etildi (4-rasm).



4-rasm. GAT orqali turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda strategik yondashuvning tarkibiy qismlari va afzalliklari⁹

Strategik rejalashtirishning eng muhim bosqichi GAT yordamida joriy vaziyatni tavsiflovchi keng qamrovli ma'lumotlar bazasini to'plash va baholashni o'z ichiga olgan mavjud vaziyatni tahlil qilishdan iborat. Pandemiya davrida Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirish strategik rejasini shakllantirish bosqichlarining mexanizmlari tavsiya qilindi (5-rasm).

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



5-rasm. Pandemiyadan keyingi davrda Qashqadaryo viloyati turzimini rivojlantirish strategik rejasini shakllantirish bosqichlarining mexanizmlari¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu rasmda ifodalangan pandemiyadan keyingi davrda geoaxborot tizimidan foydalanish orqali Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirish strategik rejasini shakllantirishning tarkibiy qismi 6 ta asosiy bosqichdan iborat bo'lishi va har bir bosqichning tarkibiy qismlarida ma'lum bir jarayonlarni hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Pandemiyadan keyingi davrda viloyat turizmini rivojlantirishda u yoki bu strategik yondashuvni asos sifatida tanlash, strategik tahlil va maqsadni belgilash bosqichida olingan natijalarga bog'liq bo'lib, hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirishni rejalashtirish va nazorat qilish nafaqat uning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi, balki iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida geoaxborot tizimidan foydalanish turizmni strategik rejasini shakllantirishda, muhim mexanizimdan biri ekanligi aniqlandi.

Raqamli turizm bozoridagi tadqiqotlar natijasi bo'yicha, turistik mahsulotni shakllantirishda asosiy xarajatlarning 77,6 foizi yondosh xizmat ko'rsatuvchi tarmoq va tashkilotlar harajatlariga to'g'ri keladi, bu esa turizmning multiplikativ samarasini aniqlashda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining salmoqli o'rni borligidan dalolat beradi. Shu tufayli raqamlashtirish jarayonida turizm xarajatlari usuli, ya'ni YAXMni yondosh xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan barcha tovar va xizmatlar xaridi uchun sarflangan mablag'lar qiymatini aniqlash tavsiya qilinadi, chunki bu usul mintaqadagi turistlar amalga oshirgan barcha sarf-xarajatlarning aniq taqsimotini hisobga olishga yordam beradi.


Hozirgi sharoitda Onlayn-portal va platformalar XXI asrda xalqaro turizmning istiqbolini belgilamoqda. Turizmni baholash byurosi, www.tourism-review.com, butun dunyo bo'ylab mehmondo'stlik mutaxassislariga turizm bo'yicha yagona echim provayderi bo'lishga yordam berish uchun o'z xizmatlarini kengaytirganini e'lon qilmoqda.

Ushbu raqamli kontent birinchi navbatda turizm sohasi vakillari uchun mo'ljallangan bo'lib, mahalliy va xorijiy turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, ommaviy axborot vositalari vakillari, gidlar va sayohat blogerlari, turizm bilan bog'liq bo'lgan yondosh tarmoqlar uchun mo'ljallangan. Maqsadi O'zbekiston turistik resurslarini turistik mahsulot sifatida raspublika ichida ham, xorijda ham targ'ib qilishdan iborat.

Yangi O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishning xorijda sinalgan va isbotlangan usullaridan biri bo'lgan geoaxborot tizimini shakllantirish zarur bo'lmoqda. Shu munosabat bilan Turizm va madaniy meros vazirligi va mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirishning "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston turizm sohasini raqamli transformalashuvi jarayonida turizm geoportalini ishlab chiqish taklif qilindi.

Shu tufayli ishda raqamli turizm bozorida geoaxborot tizimiga ixtisoslashgan turistik destinayalar, tashkilot va korxonalar, boshqaruv organlari qarorlarini

optimallashtirish uchun integrayalashgan “Tourism in Uzbekistan” geoportalinig tashkiliy mexanizmi ishlab chiqildi (6-rasm).



6-rasm. “Tourism in Uzbekistan” geoportalinig tashkiliy mexanizmi¹¹

Yangi O‘zbekiston hududlarida turizm geoportalinig shakllantirish va turizmning barcha xizmatlarini raqamlashtirish texnologiyasining rentabelligini oshirishda, an’anaviy turizm xizmatlar bozori ishtirokchilarini onlayn sohaga bosqichma-bosqich o‘tkazish jarayonini tashkil qila oladigan OTMda malakali bakalavrlarni tayyorlash bugungi kunda davr talabi hisoblanadi. Shu tufayli malakali kadrlar tayyorlash maqsadida respublikadagi barcha turizm yo‘nalishidagi OTMlarning turizm kafedralari qoshida qo‘sh ta‘lim va dual ta‘lim shaklida 61010600-“Raqamli turizmni tashkil qilish va boshqarish” bo‘yicha bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishini tashkil qilish tavsiya qilinadi.

